QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOV FAZLIDDIN RO‘ZIYEVICH

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA O‘QUVCHILAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

UO‘K: 371.213.3:371.046.14

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Raximov Fazliddin Ro‘ziyevich
Ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilar iqtidorini rivojlantirishning pedagogik boshqaruvini takomillashtirish……..... 5

Рахимов Фазлиддин Рузиевич
Совершенствование педагогического управления развитием одарённости учащихся в специализированных школах……... 23

Rakhimov Fazliddin Ro‘ziyevich
Improving the pedagogical management of the development of students’ giftedness in specialized schools…… 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…… 50

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RAXIMOV FAZLIDDIN RO‘ZIYEVICH

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA O‘QUVCHILAR IQTIDORINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Qarshi – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/Ped13691B raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Eshtemirov Axror Nurmaxmatovich** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Aslanova Orzigul Pirimovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Umarov Lutfullo Murodullayevich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.11.04 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil “____” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 221-21-04; faks: (99875) 221-00-56; e-mail: qarshidu_info@edu.uz). Qarshi davlat universiteti Tillar fakulteti, 3-qavat, 310-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180119, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17-uy. Tel.: (99875) 221-21-04).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “_____” _____ kuni tarqatildi
(2026-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.D. Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

I.B. Kamolov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash Ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sh.U. Nurullayeva
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida jamiyatni zamonaviylashtirish uning sanoat jamiyatidan axborot jamiyatiga o‘tishini ko‘zda tutadi. Bunda bilimlarni yaratish va tarqatish jarayonlari yetakchi o‘rin tutib, intellektual jihatdan yetuk, ijodiy tafakkurga ega, yangiliklarni ilgari surishga layoqatli iqtidorli shaxslarga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar davrida davlat va jamiyat o‘z taraqqiyotiga faol hissa qo‘sha oladigan kadrlarga ehtiyoj sezadi; iqtidorli o‘quvchilar bilan tizimli ishlash esa bunday kadrlarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi.

Dunyo ta’lim tizimining isloh qilinishi iqtidorli o‘quvchilarni rivojlantirishga yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun shart-sharoit yaratadi. Iqtidorli bolalarni aniqlash, rivojlantirish va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarishni ta’minlaydigan sharoitlarni yaratish bugungi kunda ta’limning ustuvor ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biridir.

Yurtimizda bu masala, xususan, sifatli ta’limga erishish imkoniyati tor bo‘lgan olis hududlardan kelgan o‘quvchilar uchun alohida ahamiyat kasb etadi va davlatning ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish strategiyasini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa iqtidorli o‘quvchilarni rivojlantirishning pedagogik boshqaruvini takomillashtirish modellarini yaratishni zarur qildi. Boshqaruv amaliyotini yaxshilashning eng natijali yo‘li – pedagogik boshqaruv nazariyasidagi asosiy konsepsiyalarni iqtidorli bolalar uchun umumiy o‘rta ta’lim sohasiga tatbiq etishdir.

Natijada mazkur izlanishning dolzarbligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: 1) iqtidorli bolalarni aniqlash va rivojlantirish, ularning imkoniyatlarini to‘liq ochish ehtiyoji bilan bog‘liq ta’limdagi zamonaviy tendensiyalar; 2) ixtisoslashtirilgan maktablarda iqtidorli o‘quvchilar rivojlanishining pedagogik boshqaruvini takomillashtirish g‘oyalarining yetarli ishlab chiqilmaganligi; 3) iqtidor darajasini aniqlash va baholash uchun texnologik hamda metodologik vositalarning yetarli taraqqiy etmaganligi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son[1] “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ–4306-son[2] “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda 2019-yil 20-fevraldagi PQ–4199-son[3] “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni. – https://lex.uz/docs/-5841063

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4306-son qarori. – https://lex.uz/docs/-4320713

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4199-son qarori. – https://lex.uz/docs/-4208152

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda o‘quvchilarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirish bo‘yicha F. Yo‘ldashev, L.Z. Qorayeva, X.T. To‘lqinova, S. Matchon, R. Safarova, Sh. Mirzakarimova, H. Bakiyeva, R. Jumaniyozov; o‘quvchilarning universal savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha B. Adizov, R.A. Qo‘ldoshev, A. Hamroyev, O.P. Aslonova, J. Yo‘ldoshevlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

MDH va xorij mamlakatlarida iqtidorlilik masalalari E. M.Arin, L.A. Venger, G. Doman, P. Klimpel, K. Krumov, A.I. Savenkov, H. Markert, R. Steiner, W. Eshbi; falsafada iste’dodning ijtimoiy hodisa sifatidagi jihatlari M.S. Kagan, I. Kant, E. Fromm; psixologiyada esa L.S. Vigotskiy, J. Gilford, E. Landau, A.M. Matyushkin, J. Renzulli, P. Torrens, V. Shtern tadqiqotlarida o‘rganilgan. Ilmiy ijodkorlik psixologiyasi J. Adamar, A. Puankare, D. Poya ishlarida, iqtidor darajalarini aniqlash masalalari esa B. Blum va A. Rene tadqiqotlarida yoritilgan.

Shunga qaramay, ixtisoslashtirilgan maktab sharoitida o‘quvchilar iqtidorini rivojlantirishning pedagogik boshqaruvini takomillashtirishning strukturaviy-funksional modelini ishlab chiqish, uning samarali faoliyat yuritishi uchun pedagogik shartlarni aniqlash hamda ona tili fani misolida lingvistik iqtidorni aniqlash va rivojlantirishning takomillashtirilgan metodikasini yaratish masalasi maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Qarshi davlat universitetining ilmiy-texnika rejalari asosida, “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilar iqtidorini rivojlantirishning pedagogik boshqaruvini takomillashtirishning strukturaviy-funksional modeli, pedagogik shartlari va metodik ta’minotini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tarixiy-qiyosiy tahlil asosida bolalar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning pedagogik boshqaruvi muammosining genezisini aniqlashtirish;

ixtisoslashtirilgan maktabning intellektual-rivojlantiruvchi ta’lim muhitida o‘quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishni boshqarishning pedagogik modelini takomillashtirish;

ixtisoslashgan maktab o‘quvchilari iqtidorini rivojlantirish jarayonini boshqarish metodikasini takomillashtirish;

ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarining iqtidorliligini aniqlash va rivojlantirishni boshqarish metodikasining samaradorligini pedagogik tajriba-sinov yo‘li bilan tekshirish hamda ilmiy-amaliy-metodik tavsiyalar tayyorlash.

Tadqiqotning obyekti ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishni pedagogik boshqarish jarayoni.

Tadqiqotning predmetini ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirishni pedagogik boshqarishni takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot muammosiga doir manbalarning retrospektiv va qiyosiy tahlili, ona tiliga doir iqtidorni aniqlash diagnostik metodikalari (Zivert testi asosidagi modifikatsiyalangan metodika, “Iqtidor xaritasi”, “Intellektual portret”), ona tilidan iqtidorni rivojlantirishga doir modifikatsiyalangan metodikalar (analitik, dialogik, kreativ va differensial uslublar hamda o‘n yettita interfaol metod va pedagogik o‘yin), pedagogik kuzatish, suhbat, anketa, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil (Styudent mezoni, K.Pirson muvofiqlik kriteriysi, Mann-Uitni rang mezoni, Laplas funksiyasi) kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tarixiy-qiyosiy tahlil asosida bolalar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning pedagogik boshqaruvi muammosining genezisi ijtimoiy-tarixiy ehtiyojlar, pedagogik qarashlar va ta’limni tashkil etish tamoyillarining evolyutsion o‘zgarishi nuqtai nazaridan muammoning iqtidorni dastlabki e’tirof etish, individual qobiliyatlarni tashxislash, maqsadli rivojlantirish hamda mazkur jarayonni tizimli pedagogik boshqarish bosqichlariga xos ustuvor xususiyatlariga ko‘ra aniqlashtirilgan;

ixtisoslashtirilgan maktabning intellektual-rivojlantiruvchi ta’lim muhitida o‘quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishni boshqarishning pedagogik modeli maqsadli, diagnostik, mazmuniy-texnologik, tashkiliy-koordinatsion va natijaviy-refleksiv komponentlarning funksional integratsiyasi, iqtidorlilikning individual-kognitiv xususiyatlarini ko‘p mezonli baholash, ta’lim trayektoriyalarini individuallashtirish hamda pedagogik monitoring natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiyalash mexanizmlarini o‘zaro muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

ixtisoslashgan maktab o‘quvchilari iqtidorini rivojlantirish jarayonini boshqarish metodikasi iqtidorning individual namoyon bo‘lish xususiyatlarini ko‘p mezonli diagnostika qilish, kognitiv va kreativ salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan individuallashtirilgan ta’lim strategiyalarini belgilash, pedagogik subyektlar hamkorligini muvofiqlashtirish hamda rivojlanish dinamikasi monitoringi asosida boshqaruv ta’sirlarini adaptiv korreksiyalashni nazarda tutuvchi diagnostik-prognostik, loyihalashtiruvchi, tashkiliy-amaliy va natijaviy-refleksiv bosqichlarning funksional izchilligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarining iqtidorliligini aniqlash va rivojlantirishni boshqarish metodikasining samaradorligi diagnostik mezonlar, baholash

ko‘rsatkichlari hamda rivojlantiruvchi pedagogik ta’sirlar uyg‘unligida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari asosida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining ona tili fanidan iqtidorini aniqlash va rivojlantirish uchun tadqiqot muammosiga doir zamonaviy yondashuvlar taqdim etilib, xorijiy tajribalar hamda ulardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyanomalar tayyorlangan;

ona tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o‘quvchilarining iqtidori rivojlanganlik mezonlari (xotiraning mustahkamligi, lug‘at boyligining kengligi, nutqiy intuitsiya, kommunikativlik) va ushbu mezonlarni shakllantirish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar aniqlashtirilgan;

o‘quvchilarning ona tilidan iqtidorini aniqlash va rivojlantirishga doir pedagogik boshqaruvning diagnostik metodikalari hamda yetti turdagi modifikatsiyalangan mashqlar va o‘n yettita interfaol metod hamda pedagogik o‘yindan iborat topshiriqlar tizimi takomillashtirilgan tarzda taqdim qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ta’lim falsafasi, ta’lim psixologiyasi, ta’limni boshqarish va umumiy ta’lim nazariyasining fundamental qoidalariga tayanish; tadqiqot mavzusi va vazifalariga mos nazariy-empirik metodlar majmuasidan foydalanish; ishlab chiqilgan modelning real ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi; izlanish ko‘lami (528 nafar o‘quvchi) hamda olingan natijalarning matematik-statistik usullar bilan 95 foiz ishonch darajasida qayta ishlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati muammoni tarixiy prizmadan analitik yoritish; iqtidorli o‘quvchilar rivojlanishining pedagogik boshqaruvini ixtisoslashtirilgan maktab sharoitida amalga oshirish xususiyatlariga oid ilmiy qarashlarni boyitish; o‘quvchilar rivojlanishini ta’minlashda pedagogik boshqaruv vositalarining o‘rnini belgilash hamda individual iqtidorlardagi sifat o‘zgarishlarini maktab doirasida boshqarish xususiyatlarini aniqlash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosa va tavsiyanomalar umumiy o‘rta ta’lim tizimida iqtidorli bolalarni o‘qitish jarayonini mazmuniy va texnologik jihatdan takomillashtirishga hamda iqtidorning rivojlanish saviyasini baholashga ko‘mak beradi. Izlanish materiallaridan ta’lim muassasalarining kundalik amaliyotida va o‘qituvchi-metodistlar malakasini oshirish tizimida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quvchilar iqtidorini rivojlantirishning pedagogik boshqaruvini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy-nazariy va amaliy natijalar asosida:

tarixiy-qiyosiy tahlil asosida bolalar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishning pedagogik boshqaruvi muammosining genezisi ijtimoiy-tarixiy ehtiyojlar, pedagogik qarashlar va ta’limni tashkil etish tamoyillarining evolyutsion o‘zgarishi nuqtai nazaridan muammoning iqtidorni dastlabki e’tirof etish, individual qobiliyatlarni tashxislash, maqsadli rivojlantirish hamda mazkur jarayonni tizimli pedagogik

boshqarish bosqichlariga xos ustuvor xususiyatlariga ko‘ra aniqlashtirilganligiga doir ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2021–2023-yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq folklorida olamning etnolingvistik tasvirini monografik aspektda tahlil qilish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2026-yil 23-iyundagi 293/1-son ma’lumotnomasi). Natijada fundamental loyiha mazmuni yangi nazariy materiallar bilan boyitilgan;

ixtisoslashtirilgan maktabning intellektual-rivojlantiruvchi ta’lim muhitida o‘quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishni boshqarishning pedagogik modeli maqsadli, diagnostik, mazmuniy-texnologik, tashkiliy-koordinatsion va natijaviy-refleksiv komponentlarning funksional integratsiyasi, iqtidorlilikning individual-kognitiv xususiyatlarini ko‘p mezonli baholash, ta’lim trayektoriyalarini individuallashtirish hamda pedagogik monitoring natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiyalash mexanizmlarini o‘zaro muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilganligiga doir ma’lumotlardan “Mutaxassislikka kirish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 55104-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘quvchilar iqtidorliligini rivojlantirishni boshqarishga tayyorlash jarayonining tizimli tashkil etilishiga xizmat qilgan;

ixtisoslashgan maktab o‘quvchilari iqtidorini rivojlantirish jarayonini boshqarish metodikasi iqtidorning individual namoyon bo‘lish xususiyatlarini ko‘p mezonli diagnostika qilish, kognitiv va kreativ salohiyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan individuallashtirilgan ta’lim strategiyalarini belgilash, pedagogik subyektlar hamkorligini muvofiqlashtirish hamda rivojlanish dinamikasi monitoringi asosida boshqaruv ta’sirlarini adaptiv korreksiyalashni nazarda tutuvchi diagnostik-prognostik, loyihalashtiruvchi, tashkiliy-amaliy va natijaviy-refleksiv bosqichlarning funksional izchilligini ta’minlash asosida takomillashtirilganligiga doir xulosalardan “Mutaxassislikka kirish” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 55104-sonli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda o‘quvchilar iqtidorliligini rivojlantirishga doir innovatsion texnologiyalar asosida takomillashuviga xizmat qilgan;

ixtisoslashgan maktab o‘quvchilarining iqtidorliligini aniqlash va rivojlantirishni boshqarish metodikasining samaradorligi diagnostik mezonlar, baholash ko‘rsatkichlari hamda rivojlantiruvchi pedagogik ta’sirlar uyg‘unligida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari asosida asoslanganligiga doir ma’lumotlardan Samarqand viloyati, Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahridan tanlab olingan tajriba sinov obyektlaridagi o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan (Respublika ta’lim markazi tomonidan 2026-yil 11-iyunda berilgan 01/11-11/15-381-sonli ma’lumotnoma). Natijada ixtisoslashgan maktablarda o‘quvchilar iqtidorliligini rivojlantirish jarayonini boshqarish innovatsion texnologiyalar asosida boyitilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, sakkizta paragraf, boblar bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosa, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, e’lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Ixtisoslashtirilgan ta’limni tashkil etilishi va o‘quvchilar iqtidorini aniqlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi ikkita paragrafdan iborat bo‘lib, unda iqtidorlilikning zamonaviy konsepsiyalari, maktab o‘quvchilarida uni rivojlantirish xususiyatlari hamda o‘quvchilar iqtidorini aniqlash va uning boshqaruvini tashkil etishning o‘ziga xos yo‘llari yoritilgan.

Iqtidorlilikning zamonaviy konsepsiyalari va maktab o‘quvchilarida uni rivojlantirish xususiyatlari tahlil qilingan. Tarixiy-qiyosiy tahlil asosida muammo genezisining to‘rt bosqichi ajratilgan.

Birinchi bosqichda iqtidor dastlab e’tirof etilib, uni tarbiyalash g‘oyalari ma’rifatparvarlar qarashlarida ilgari surilgan. Ikkinchi bosqichda (F. Galton, L. Termen) qobiliyatlar tashxislanib, iqtidorlilik intellekt koeffitsiyenti bilan o‘lchangan. Uchinchi bosqichda B.M. Teplov qobiliyatlarning faoliyatda shakllanishini asoslagan[4]. To‘rtinchi bosqich tizimli pedagogik boshqarishga o‘tish bilan tavsiflanadi (J. Gilford, J. Renzulli, H. Gardner, K. Xeller, F. Monks, B. Blum, U. Eshbi).

Paragrafda iqtidorlilik instrumental (nimani va qanday qila olish) hamda motivatsion (borliq va o‘z faoliyatiga munosabat) jihatlar birligida qaralishi asoslanib, uning tuzilmasida intellekt, kreativlik va motivatsiya ajratiladi. Zamonaviy pedagogika bir martalik sinovlarga ko‘ra “saralash” amaliyotidan ogohlantirib, uzoq muddatli, ko‘p o‘lchovli psixologik-pedagogik kuzatuvga yo‘naltiradi.

Bobda “biologizatorlik” va “sotsiologizatorlik” yondashuvlarining o‘ta chegaralari tanqidiy tahlil qilinib, iqtidorlilik nasliy moyilliklar va sotsiomadaniy muhitning bola shaxsiy faolligi orqali vositalangan o‘zaro ta’siri ekanligi asoslangan; dissinxroniya – qobiliyatlarning notekis rivojlanishi hodisasi ochib berilgan.

[4] Теплов Б.М. Способности и одарённость // Избранные труды: в 2 т. – Москва: Педагогика, 1985. – Т. 1.

Maktab o‘quvchilari iqtidorini aniqlash va uning boshqaruvini tashkil etishning o‘ziga xos yo‘llari ochib berilgan. Pedagogik jarayonni tashkil etish va uni boshqarishning vazifasi – har bir o‘quvchi shaxsini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, o‘z-o‘zini tashkil etadigan o‘quvchilar jamoalarini shakllantirish va murakkab jamoaviy jarayonlarni boshqarishdir.

Pedagogika fanida pedagogik boshqaruv mustaqil kasbiy faoliyat turi sifatida qaraladi; u maqsadli pedagogik ta’sir bo‘lib, obyekti texnik yoki iqtisodiy tizim emas, balki tirik, rivojlanib boruvchi o‘quvchilar jamoasidir.

Mavzuning dolzarbligi ta’lim muhitining murakkablashuvi o‘qituvchidan boshqaruv kompetensiyalarini talab etishi hamda “pedagogik faoliyat”, “pedagogik menejment” va “pedagogik boshqaruv” tushunchalarining amaliyotda aralashtirilishi bilan izohlanadi.

Pedagogik boshqaruvning to‘rt darajali tuzilmasi asoslangan: strategik darajada maktabning iqtidorli bolalar bilan ishlash konsepsiyasi shakllantiriladi; taktik darajada o‘qitish va tarbiyalash jarayonlari loyihalanadi; operativ darajada o‘quv mashg‘ulotlari va darsdan tashqari tadbirlar tashkil etiladi; to‘rtinchi darajada o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarishi amalga oshiriladi.

Tadqiqotda quyidagi mualliflik (ishchi) ta’riflari ishlab chiqilgan va ular ish davomida izchil qo‘llanilgan.

O‘quvchilar iqtidorini rivojlantirishning pedagogik boshqaruvi – muallif talqinida ixtisoslashtirilgan maktabning ta’lim muhitida o‘quvchi iqtidorining motivatsion, kognitiv va jarayoniy komponentlarini uzluksiz diagnostika qilish asosida bashoratlash, rejalashtirish, tashkil etish, rahbarlik va nazorat funksiyalari birligida maqsadli tartibga solish hamda o‘quvchilar jamoasini tashqi boshqaruvdan o‘z-o‘zini boshqarish darajasiga bosqichma-bosqich o‘tkazishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik faoliyat turi.

Ixtisoslashtirilgan maktabning intellektual-rivojlantiruvchi ta’lim muhiti – muallif ta’rifiga ko‘ra, an’anaviy va rivojlantiruvchi ta’lim komponentlarining integratsiyasi asosida shakllantiriladigan, evristik xarakterga ega, o‘quvchini ta’lim obyekti holatidan o‘z faoliyatining subyekti holatiga o‘tkazuvchi hamda uning shaxsiy ta’lim mahsulotini yaratishini kafolatlovchi ochiq, dinamik va o‘z-o‘zini tashkil etuvchi shart-sharoitlar tizimi.

Lingvistik iqtidor – muallif talqinida o‘quvchining ona tili materialini idrok etish, tahlil qilish va qayta yaratishga bo‘lgan tabiiy moyilligi hamda uzluksiz ta’lim faoliyati natijasida shakllanadigan xotira mustahkamligi, lug‘at boyligi, nutqiy intuitsiya va kommunikativlik ko‘rsatkichlarining yaxlit birligi bo‘lib, u original nutqiy-ijodiy mahsulot yarata olish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Iqtidorni rivojlantirishning pedagogik boshqaruvi modeli – muallif ta’rifiga ko‘ra, maqsadli, diagnostik, mazmuniy-texnologik, tashkiliy-koordinatsion va natijaviy-refleksiv komponentlarning funksional integratsiyasi asosida qurilgan, teskari aloqa mexanizmi orqali doimiy qayta sozlanadigan hamda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashni alohida tadbirlar to‘plamidan

boshqariladigan, takrorlanuvchi va takomillashtiriladigan yaxlit jarayonga aylantiruvchi tizim.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik boshqaruvda o‘quvchilar iqtidorini rivojlantirishning takomillashtirilgan metodikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi to‘rtta paragrafdan iborat bo‘lib, unda intellektual-rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratishning pedagogik shartlari, iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirish jarayonining strukturaviy-funksional modeli, axborot-ta’lim muhitida shaxsning o‘zligini namoyon etishi hamda o‘quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirish metodikasi bayon etilgan.

Ixtisoslashtirilgan maktablarda intellektual-rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratishning pedagogik shartlari o‘rganilgan. Muhit yondashuvi urg‘uni o‘qituvchining bevosita ta’siridan sharoit yaratishga ko‘chiradi.

Intellektual muhitning eng yuqori ko‘rinishi – evristik muhit bo‘lib, A.V. Xutorskoyning didaktik evristikasiga[5] ko‘ra haqiqiy ta’lim o‘z ta’lim mahsulotini yaratishdir. Muhitning markaziy g‘oyasi – bolaning obyekt holatidan o‘z faoliyatining subyekti holatiga o‘tishi bo‘lib, bunga muammoli ta’lim, tadqiqiy va loyiha faoliyati hamda individual ta’lim traektoriyalari xizmat qiladi. Konsepsiyaning nazariy-metodologik poydevorini L.S. Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi, faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi.


Ta’limni tabaqalashtirishning uchta shakli qiyosiy tahlil qilingan: qat’iy (selektiv) shakl (Singapurdagi Raffles maktablari, Koreyadagi ilmiy akademiyalar) – uning xavfi bolaning tabiiy mikromuhitdan uzilishidir; o‘tish shakli (litsey va profil sinflari); hamda moslashuvchan shakl (topshiriqlar murakkabligini differensiallash).

Tizimli tahlil natijasida modelning samarali ishlashi uchun quyidagi pedagogik shartlar zarur va yetarli deb aniqlandi: (1) o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini psixologik-pedagogik diagnostika qilishning uzluksiz va ko‘p o‘lchovli tizimini yo‘lga qo‘yish; (2) evristik xarakterga ega intellektual-rivojlantiruvchi ta’lim muhitini loyihalash; (3) har bir iqtidorli o‘quvchi uchun individual ta’lim marshrutini ishlab chiqish va tyutorlik kuzatuvini ta’minlash; (4) pedagoglarning iqtidorli bolalar bilan ishlash bo‘yicha kasbiy kompetentligini uzluksiz oshirib borish; (5) maktab, oila va tashqi ilmiy-ta’lim muhiti o‘rtasida tarmoqli hamkorlikni tashkil etish.

Iqtidorlilikni aniqlash va rivojlantirish jarayonining strukturaviy-funksional modeli iqtidorli bolalar bilan ishni alohida tadbirlar to‘plami sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq komponentlarning boshqariladigan yaxlit tizimi sifatida tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan strukturaviy-funksional model beshta blokdan iborat: maqsad bloki; metodologik blok; strategik blok; diagnostik blok; natija bloki (1-rasm).

[5] Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения. – Москва: Изд-во МГУ, 2003. – 416 с.



1-rasm. Ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilar iqtidorini rivojlantirishni boshqarish jarayonining strukturaviy-funksional modeli.

Maqsad blokida modelning maqsadi – ta’lim jarayonida o‘quvchilar iqtidorini aniqlash va rivojlantirishni tizimlashtirish – ijtimoiy, subyektiv ehtiyojlar va davlat ta’lim standartlari talablari asosida belgilanadi. Metodologik blok model vazifalarini (iqtidorni diagnostik o‘rganish, rivojlantiruvchi mashqlarni tizimlashtirish, shakllanganlik mezonlari va darajalarini aniqlash), tamoyillarni hamda yondashuvlarni (individual, differensial, tizimli va integrativ) qamrab oladi.

Modelning metodologik bloki negizini muallif tomonidan asoslangan quyidagi tamoyillar tizimi tashkil etadi:

1) tizimlilik va yaxlitlik – boshqaruvning barcha bloklari hamda funksional kichik tizimlari yagona maqsadga bo‘ysundiriladi;

2) shaxsga yo‘naltirilganlik – har bir o‘quvchining noyob shaxs sifatidagi ichki qadri va cheksiz rivojlanish salohiyati e’tirof etiladi;

3) individuallashtirish va tabaqalashtirish – ta’lim mazmuni, sur’ati va murakkablik darajasi o‘quvchi iqtidorining darajasiga muvofiqlashtiriladi;

4) uzluksizlik va bosqichmalik – diagnostika hamda rivojlantirish bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz va ko‘p o‘lchovli jarayon sifatida tashkil etiladi;

5) rag‘batlantirish va muvaffaqiyat vaziyatini yaratish – o‘quvchining ichki motivatsiyasi tashqi majburlashdan ustun qo‘yiladi;

6) ochiqlik va tarmoqli hamkorlik – maktab, oila, oliy ta’lim muassasalari va tashqi ilmiy-ta’lim muhiti o‘rtasida uzviy aloqa ta’minlanadi;

7) o‘z-o‘zini boshqarishga bosqichma-bosqich o‘tish – pedagogning bevosita rahbarlik pozitsiyasi jamoa yetilgani sari maslahatchi-tyutor pozitsiyasiga o‘tkaziladi.

Strategik blok modelni amalga oshirish strategiyasi, metodikasi va natijalarni tavsiflovchi mezonlarni qamrab oladi. Metodika to‘rt bosqichda amalga oshiriladi:

Diagnostik-prognostik bosqichda lingvistik iqtidorlilik darajasi Zivert testi va modifikatsiyalangan metodikalar orqali aniqlanib, rivojlanish istiqboli bashorat qilinadi. Loyihalashtiruvchi bosqichda mashqlar iqtidor darajasiga ko‘ra differensiallashtiriladi. Tashkiliy-amaliy bosqichda o‘qituvchi kirish suhbati o‘tkazib, rag‘batlantirish haqida ma’lumot beradi, tayyorlangan materiallar darsda qo‘llaniladi. Natijaviy-refleksiv bosqichda rivojlanish dinamikasi kuzatilib, boshqaruv ta’sirlari korreksiyalanadi.

Tashkiliy-amaliy bosqich metodikalari modifikatsiyalangan diagnostik va rivojlantiruvchi metodikalardan iborat bo‘lib, rivojlantiruvchi metodikalar lug‘at boyligi, morfologik iqtidor, so‘z yasalishi, matn tuzish, fonematik iqtidor va xotirani rivojlantirishga doir mashqlarni qamrab oladi.

Mazkur metodikaning samaradorligini baholashda o‘quvchilarda iqtidorlilikning shakllanganlik mezonlari belgilab olingan: xotiraning mustahkamligi; lug‘at boyligining kengligi; nutqiy intuitsiya; kommunikativlik.

Natija blokida modelni amalga oshirish natijasi – “lingvistik iqtidori rivojlangan o‘quvchi” va uning belgilari (eshitish sezgisi, xotira kengligi, so‘z-mantiqiy xotiraning rivojlanganligi) qayd etilgan.

Model o‘z ichiga oltita o‘zaro bog‘liq funksional kichik tizimni oladi. Ularning har biri o‘ziga xos funksiya va mazmunga ega.

Aniqlash tizimi kompleks diagnostika (pedagogik kuzatuv, o‘zlashtirish tahlili, olimpiadalar, psixologik testlar) orqali yaqqol va yashirin iqtidorlilikni aniqlaydi; fan ta’limida rivojlantirish boyitilgan dasturlar va tadqiqiy texnologiyalarga tayanadi; darsdan tashqari faoliyat to‘garaklar, ilmiy jamiyatlar va tanlovlar orqali tashkil etiladi; psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash individual ta’lim marshrutlarini, axborot-ta’lim muhiti AKT va tarmoqli hamkorlikni, rag‘batlantirish tizimi esa ma’naviy va moddiy choralarni qamrab oladi.

Modelning samarali ishlashi boshqaruv subyektlari o‘rtasida funksiyalarni aniq taqsimlashni talab qiladi.

Direktor umumiy rahbarlik, strategiya va rag‘batlantirish fondini ta’minlaydi; direktor o‘rinbosari metodik ish va individual ta’lim marshrutlarini muvofiqlashtiradi; fan o‘qituvchisi iqtidorli bolalarni aniqlaydi, o‘quv rejalarini moslashtiradi va olimpiadaga tayyorlaydi; pedagog-psixolog diagnostika hamda hissiy-irodaviy sohani korreksiyalashni amalga oshiradi; mentor (tyutor) individual o‘sish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Shu tariqa bloklar modelning maqsadli, diagnostik, mazmuniy-texnologik (strategik blok), tashkiliy-koordinatsion (kichik tizimlar va subyektlar faoliyati) hamda natijaviy-refleksiv komponentlarini amalga oshiradi.

Axborot-ta’lim muhitida o‘quvchi-shaxsining o‘zligini namoyon etishi asosida rivojlantirilishi masalasi yoritilgan.

Axborot-ta’lim muhitining tayanch xususiyati – uning ochiqligi va emerjentligi: muhitning umumiy effekti ayrim elementlar ta’siri yig‘indisidan oshadi. Shu bois muassasani texnika bilan oddiy jihozlash rivojlantiruvchi muhit yaratmaydi – texnika mazmun va kommunikatsiya bilan integratsiya qilingandagina muhit qismiga aylanadi.

Paragrafda o‘z-o‘zini rivojlantirishning texnologik va didaktik vositalari ajratib ko‘rsatilgan.

Individual ta’lim traektoriyalari o‘quvchining “o‘z obrazi”ni yaratishga xizmat qiladi; geymifikatsiya o‘yin mexanikalari, tezkor qaytar aloqa va aniq maqsadlar (ballar, darajalar, statuslar) orqali ichki motivatsiyani rag‘batlantiradi; forsayt texnologiyasi “istagan kelajak obrazi”ni modellashtirish imkonini beradi; raqamli portfolio esa o‘z-o‘zini baholash va refleksiya self-kompetensiyasini rivojlantiradi.

O‘quvchilarning iqtidorini aniqlash va rivojlantirish metodikasi ona tili fani misolida batafsil bayon etilgan. Ona tilini o‘qitishda lingvistik iqtidorni aniqlash va rivojlantirish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, unda turli metodik yondashuvlar, usullar va uslublar keng qo‘llaniladi.

Iqtidorni aniqlashning asosiy mexanizmlari.

Sinovlar va testlar: yozma sinovlarda 10-15 daqiqalik tez yozuv topshirig‘i orqali fikrni aniq ifodalash, og‘zaki testlar orqali til boyligi va nutq ravonligi, guruh diskussiyalari orqali argument shakllantirish malakasi baholanadi. Tahlil va baholashda murakkab matnlar berilib, matn mazmuni, tuzilishi va muallif

pozitsiyasini tahlil qilish hamda matn davomini oldindan fahmlash iqtidorning muhim ko‘rsatkichi sifatida qaraladi.

Iqtidorni rivojlantirishda foydalaniladigan uslublar.

Analitik uslub tilni tahlil qilishga asoslanadi: o‘quvchilarga matnni qismlarga ajratish va har bir qismini alohida tahlil qilish topshirig‘i beriladi, murakkab iboralar, metaforalar, tashbeh va timsollarning semantik tahlili o‘tkaziladi. Tasniflash va toifalash qobiliyati ham shu uslub doirasida shakllanadi.

Dialogik uslubda o‘qituvchi va o‘quvchi, shuningdek, o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti asosiy o‘rin tutadi. “Savol-javob” usuli orqali matn mazmunini ochish, “Aqliy hujum” (brainstorming) metodi orqali muammoli savollarga javob topish, juftlik va kichik guruhlarda muhokama tashkil etish – barchasi dialogik uslubning amaliy shakllaridir.

Kreativ uslub o‘quvchilarning tasavvurini, badiiy tafakkurini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan. Berilgan maqol yoki hikmat asosida hikoya tuzish, matn yakunini mustaqil davom ettirish, bir voqeani turli qahramonlar nigohida tasvirlash, she’r yoki kichik sahna ko‘rinishlari yaratish shu uslubning amaliy shakllaridir. Fikrlashning originalligi va moslashuvchanligi ijodiy uslub doirasida alohida baholanadi.

Differensial uslubda topshiriqlar o‘quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab turlicha murakkablikda beriladi: kuchli o‘quvchilarga tahliliy va ijodiy topshiriqlar, o‘rtacha darajadagi o‘quvchilarga izohli va mustahkamlovchi mashqlar, qiyinchilik sezayotgan o‘quvchilarga ko‘makchi savollar va namunaviy mashqlar beriladi.

Ona tili darslarida AKT, multimedia va onlayn platformalar asosida taqdimotlar, elektron matnlar va interfaol mashqlar tashkil etiladi. Tadqiqot doirasida oltita asosiy amaliy metod ishlab chiqilgan va sinovdan o‘tkazilgan.

1-jadval

Ona tili darslarida iqtidorni rivojlantirishning asosiy amaliy metodlari

Metod	Mazmuni va didaktik imkoniyati
“Aql charxi”	Ma’lum bir mavzuga oid savollar og‘zaki yoki yozma shaklda beriladi; o‘quvchilar javob topish uchun o‘z bilim va ko‘nikmalaridan foydalanadilar. Har bir fanga mos keladi va foydalanishda qulay
“Klaster”	Mavzuga oid tayanch tushuncha yoziladi, o‘quvchi unga tegishli ma’lumotlarni belgilaydi (masalan, ravishning ma’noviy guruhlari). Tasniflash va toifalash qobiliyatini rivojlantiradi
“Qay biri ortiqcha?”	Test shaklida bo‘lib, mavzuga yoki bo‘limga oid bo‘lmagan sintaktik birlikni topish talab etiladi. Mantiqiy tahlil va tizimlashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi
“Chala xat”	Qoida, ta’rif va mulohazalar to‘liq bo‘lmagan – so‘z yoki qo‘shimchalar tushirib qoldirilgan shaklda beriladi, o‘rganuvchi ularni topib yozadi. Nazariy bilimlarni tekshirish uchun qo‘llaniladi
“Aql xaritasi”	5-8-sinf o‘quvchilari uchun mos; diagramma yoki rasm ko‘rsatiladi va shu asosda mavzuga bog‘lagan holda matn tuzish topshiriladi. Ijodkorlik mahoratini sinovdan o‘tkazadi
“Kalit so‘z”	Dars boshida o‘tgan mavzuni aks ettirish yoki dars oxirida umumlashtirish uchun qo‘llaniladi: darsda qo‘llanilgan atamalar bo‘yicha kalit so‘zlarni yozish topshiriladi

Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasida do‘stona raqobatni shakllantiruvchi, diqqatni jamlashni ta’minlovchi va mustaqil fikrlashga undovchi qo‘shimcha metodlar va pedagogik o‘yinlar majmuasi ishlab chiqilgan.

2-jadval

Iqtidorni rivojlantirishga xizmat qiluvchi qo‘shimcha metodlar va pedagogik o‘yinlar

Metod / pedagogik o‘yin	**Tashkil etilishi va kutilayotgan natija**
“Savodxonlik daqiqasi”	Darsning tashkiliy qismida qo‘llaniladi; elektron doskada interfaol o‘yin asosida yoki daftarga yozdirish orqali. X va H undoshli, talaffuzi va yozilishi farqlanuvchi so‘zlarni to‘g‘ri yozish ko‘nikmasi shakllanadi
“Qadamba-qadam” o‘yini	Har bir to‘g‘ri aytilgan ma’lumotdan so‘ng o‘quvchi bir qadam tashlaydi, xato bo‘lsa joyidan qo‘zg‘almaydi; finishga birinchi kelgan g‘olib bo‘ladi. O‘zaro do‘stona raqobat va g‘oliblikka intilishni shakllantiradi
“Avtofokus”	Sinf o‘quvchilarining yarmiga qizil, qolganlariga ko‘k rangli tarqatmalar beriladi; mavzu tushuntirilayotganda to‘satdan bir guruhga o‘rnidan turish aytilib, savol beriladi. Diqqatni jamlashni va hushyorlikni ta’minlaydi
“Qarmoq”	Darsni boshlashdan avval jumboqli savol tashlanadi, mashg‘ulot mobaynida javob topish mumkinligi aytiladi. O‘quvchilar dars yakunigacha diqqat bilan tinglaydi va javobni izlaydi
“Aralash-quralash”	5-8-sinflarda qo‘llaniladi: 10-15 o‘quvchidan ixtiyoriy so‘zlar so‘ralib doskaga yoziladi, ular asosida bog‘lanishli matn tuzish topshiriladi. Mantiqiy fikrlash va grammatik qoidalarni takrorlashga yordam beradi
“O‘z-o‘zingga baho ber”	O‘quvchilar o‘zlari yozgan diktant yoki matndagi xatolarni topadi va o‘ziga xolisona baho beradi; o‘qituvchi baholarning to‘g‘riligini tekshiradi. Imloviy savodxonlik va adolat tushunchasini shakllantiradi
“Harfiy bahrubayt”	O‘quvchilar o‘tgan dars mavzulari asosida to‘xtagan harf bo‘yicha ma’lumotlar aytadilar. Uyda ko‘proq ma’lumot to‘plashga undaydi
“Kim oshdi savdosi”	Uyga ijodkor asari yoki hayoti mustaqil o‘rganish uchun beriladi; keyingi darsda “darsning eng yaxshi o‘quvchisi” unvoni uchun ma’lumotlar soni bo‘yicha “narx” oshirib boriladi
“Mutolaa vaqti”	Har chorakda o‘quvchilar ixtiyori bilan qo‘shimcha badiiy asarlar o‘qish uchun beriladi, asarlar o‘rtasidagi bog‘liqlik muhokama qilinadi. Dunyoqarash kengayadi, nutq rivojlanadi
“A4 formati”	Mavzu 6 qismga bo‘linadi; har bir o‘quvchi bir-birini takrorlamaydigan yangi ma’lumot, qoida, ta’rif yozadi. Barcha o‘quvchini bir vaqtda baholash imkonini beradi
“Davrlar stuli”	O‘rtaga uch rangli stul qo‘yiladi: qizil stikerlida o‘tirgan yangi mavzu bo‘yicha, yashil stikerlida o‘tgan dars bo‘yicha, sariq rangdagi esa avvalgi sinflarda o‘tilgan mavzu bo‘yicha savollarga javob beradi

Ona tilida iqtidorni baholash metodikasi.

Ona tili fanida iqtidorni baholash uchun maxsus mezonlar tizimi ishlab chiqilgan bo‘lib, baholash uchun ballar usuli qo‘llaniladi. Ekspert baholash usulidan foydalanilganda, ya’ni bolalarni yaxshi biladigan boshqa o‘qituvchilarni baholarga jalb qilinganda natija yanada obyektiv bo‘ladi.

Ona tili fanida iqtidorni baholashda yetti asosiy parametrdan foydalaniladi: nutq boyligi va ravonligi; grammatik savodxonlik; ijodiy fikrlash; matnni tahlil qilish; og‘zaki nutq madaniyati; mustaqil ijodiy ish hamda adabiy tahlil ko‘nikmasi. Har bir parametr ballar usulida baholanadi.

Baholashning uch qatlamli tizimi muallif tomonidan quyidagicha muvofiqlashtirilgan: yettita fan parametri o‘quvchining ona tili bo‘yicha o‘quv-ijodiy faoliyatini bevosita o‘lchaydi; ular umumlashtirilib, iqtidorlilikning to‘rtta asosiy mezoniga proyeksiya qilinadi; to‘rt mezon bo‘yicha olingan ballar esa $U = \frac{K_1 + K_2 + K_3 + K_4}{4}$ formulasi asosida umumlashtirilgan ko‘rsatkichga aylantiriladi. Mezonlar, ularning ko‘rsatkichlari hamda tegishli diagnostik vositalar quyidagicha belgilangan.

Xotiraning mustahkamligi mezoni matn, she’r va lug‘aviy birliklarni eslab qolish hajmi hamda aniqligi, so‘z-mantiqiy xotira va eshitib idrok etish sezgirligi ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi. Bu mezon Zivert testi asosidagi modifikatsiyalangan metodika, “Intellektual portret” metodikasi hamda yod olish va diktant topshiriqlari yordamida baholanadi.

Lug‘at boyligining kengligi mezoni faol va passiv lug‘at hajmida, sinonim, antonim va frazeologik birliklardan o‘rinli foydalanishda hamda so‘z yasash faolligida namoyon bo‘ladi. Uni baholashda lug‘aviy testlar, “Klaster”, “Aql xaritasi”, “Kalit so‘z” metodlari, insho va matn tahlili qo‘llaniladi.

Nutqiy intuitsiya mezoni grammatik va uslubiy me’yorni his qilish, xatoni tez ilg‘ash, matn uslubi va muallif pozitsiyasini farqlash ko‘rsatkichlarini qamrab oladi. U “Chala xat”, “Qay biri ortiqcha?”, “Avtofokus” metodlari hamda tahrir va matn tahlili topshiriqlari orqali tekshiriladi.

Kommunikativlik mezoni fikrni og‘zaki va yozma bayon etish ravonligi, munozarada faol ishtirok etish va tinglovchiga ta’sir eta olish ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Bu mezon dialogik uslub, “Davrlar stuli”, “Kim oshdi savdosi”, “Qarmoq” o‘yinlari va ekspert baholash yordamida baholanadi.

Har bir ko‘rsatkich uch balli shkalada (1-qisman, 2-yetarli, 3-to‘liq namoyon bo‘ladi) baholanadi; umumlashtirilgan ko‘rsatkich qiymatiga ko‘ra o‘quvchilar yuqori (barcha ko‘rsatkichlarning 90-100 %i), yaxshi (kamida 75 %) va o‘rta (kamida 50 %) darajalarga taqsimlanadi.

